




INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLAR ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



Google Scholar doi

zenodo

OpenAIRE



+998335668868



<https://innoworld.net>

2025



**«INNOVATIVE WORLD» ILMIY TADQIQOTLARNI QO'LLAB-
QUVVATLASH MARKAZI**

**«ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOTLAR: MUAMMO VA
YECHIMLAR» NOMLI 2025-YIL № 5-SONLI ILMIY, MASOFAVIY,
ONLAYN KONFERENSIYASI**

**ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYA TO'PLAMI
СБОРНИК НАУЧНЫХ-ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЙ
SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE COLLECTION**

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2025

TARJIMA NAZARIYASI VA TRANSFORMATSIYA O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK**Xomirzayeva Rayxona Akbarovna**

Termiz Davlat pedagogika instituti Tillar fakulteti talabasi

Solijonov Jo'raali Komoljonovich

Termiz Davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarjima nazariyasi va tarjima jarayonidagi transformatsiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik yoritilgan. Tarjimaning mohiyati, bosqichlari, asosiy turlari hamda tarjima tahlilining ahamiyati ilmiy asosda tahlil qilinadi. Muallif tarjima nafaqat til, balki madaniyat va tafakkur o'rtasidagi muloqot vositasi ekanini ta'kidlaydi. Maqolada lingvistik, madaniy va kognitiv yondashuvlarning tarjima jarayonidagi o'рни ham ko'rsatilgan. Xulosa qismida tarjima nazariyasi va tahlilning uyg'unligi tarjimonning kasbiy mahoratini oshirishdagi ahamiyati bayon etiladi.

Kalit so'zlari: Tarjima nazariyasi, transformatsiya, lingvistik transformatsiya, metodologiya, sintaktik transformatsiya, ekvivalentsiya

Tarjima — bu ikki til o'rtasida ma'no, shakl va uslubiy jihatdan muvofiqlikni ta'minlovchi ijodiy va intellektual jarayondir. U nafaqat so'zlarni bir tildan ikkinchi tilga o'tkazish, balki madaniyat, fikr va ma'nolarni yetkazish san'atidir. Tarjima nazariyasi esa bu jarayonni ilmiy asosda o'rganadi, tarjimon faoliyatidagi qonuniyatlar, usullar va prinsiplarni aniqlaydi.

Tarjima nazariyasining mohiyati: tarjima nazariyasi — bu tarjimaning umumiy qonuniyatlarini, til va madaniyat o'rtasidagi munosabatni o'rganuvchi fan sohasi. U tarjimaning asosiy turlarini, metodlarini va uslublarini tizimli tahlil qiladi. Nazariya amaliy tarjima uchun yo'l-yo'riq beradi, tarjimonni ilmiy asosda fikrlashga o'rgatadi.

Lingvistik yondashuv — tarjimani til birliklari orqali o'rganadi.

Madaniy yondashuv — tarjimada milliy madaniyat va kontekst rolini tahlil qiladi.

Kognitiv yondashuv — tarjimon tafakkuri va idrok jarayonini o'rganadi.

Tarjima jarayonining bosqichlari

Tarjima jarayoni uch asosiy bosqichdan iborat:

Tushunish (idrok qilish) — asl matn mazmunini to'liq anglash. Qayta ishlash — tildan tilga o'girishning eng muhim bosqichi bo'lib, ma'no, uslub va kontekstni moslashtirish jarayonini o'z ichiga oladi. Yozma (yoki og'zaki) ifoda — olingan ma'noni tarjima tilida tabiiy shaklda ifodalash.

Bu bosqichlarda tarjimon faqat so'z emas, balki fikr va ruhni ham o'tkazishi lozim. Tarjimaning asosiy turlari Adabiy tarjima — badiiy asarlar, roman, she'r, hikoya tarjimasi. Texnik tarjima — ilmiy, texnik hujjatlar, yo'riqnomalar tarjimasi. Og'zaki tarjima — sinxron va ketma-ket tarjimalar.

Audiovizual tarjima — film, subtitr va dublyaj tarjimalari. Har bir tur o'ziga xos yondashuv, uslub va terminologiyani talab qiladi.

Tarjima tahlili (analizi) arjima tahlili — bu asl matn va tarjima matni o'rtasidagi ma'no, uslub, grammatik va madaniy muvofiqlikni o'rganish jarayonidir.

Tahlil bosqichlari quyidagicha: asl matnni tahlil qilish — mazmun, g'oya, uslub va kontekstni aniqlash.

Tarjima matnini tahlil qilish — tarjimadagi ekvivalentlar, sinonimlar, leksik tanlovlarni ko'rib chiqish. Taqqoslash — ikki matn o'rtasidagi farq va moslikni aniqlash. Xulosa chiqarish — tarjimaning aniqligi, tabiiyligi va stilistik sadoqat darajasini baholash.

Masalan, ingliz tilidagi "He kicked the bucket" iborasini "U chelakni tepdi" deb tarjima qilish grammatik jihatdan to'g'ri, lekin ma'nosi noto'g'ri, chunki bu frazeologizm "U vafot etdi" degan ma'noni beradi. Shuning uchun tarjima tahlili ma'no sadoqatini saqlashda muhim rol o'ynaydi.

Tilshunoslikda transformatsiya — bu so'z, gap yoki butun matnning grammatik yoki ma'noviy tuzilishini o'zgartirib, mazmunni saqlab qolish jarayonidir.

Transformatsiyalar tildagi o'zgarishlarni, tarjima jarayonini, hamda matn tahlilini chuqur o'rganishda muhim o'rin tutadi. Ular orqali nutq yanada aniqlik, ixchamlik va ifodaviylik kasb etadi.

Transformatsiyaning asosiy maqsadi — mazmunni o'zgartirmasdan, shaklni yangilash yoki soddalashtirish. Bu jarayon transformatsiyaning turlari tilshunoslikda transformatsiyalar turli mezonlarga ko'ra ajratiladi. Eng asosiylari — leksik, morfologik, sintaktik va punktuatsion transformatsiyalardir.

Leksik transformatsiya bu turda so'z o'zgartiriladi, lekin mazmun saqlanadi.

Masalan, go'zal → chiroyli; tez yugurdi → shiddat bilan yugurdi. Ma'no bir xil, lekin so'z yoki ibora o'zgardi.

Morfologik transformatsiya bu so'zning grammatik shaklini o'zgartirish orqali amalga oshadi. Masalan, Men o'qiymen → Men o'qiyapman; Bolalar o'ynaydi → Bolalar o'ynayapti.

Fe'lning zamoni yoki shakli o'zgardi, ammo mazmun saqlanib qoldi. Sintaktik transformatsiya bu gap tuzilmasini o'zgartirishdir. Masalan, U bugun keldi → Bugun u keldi; Men uni ko'rdim → Uni men ko'rdim.

So'z tartibi o'zgardi, lekin ma'no saqlanib qoldi. Shuningdek, sodda gapni murakkab gapga aylantirish yoki aksincha, ham sintaktik transformatsiyadir.

Punktuatsion transformatsiya bu tinsh belgilarini o'zgartirish orqali ifoda yoki ohangni o'zgartirishdir. Masalan, U ketdi. → U ketdimi?; Men seni kutdim → Men seni kutdim!

Transformatsiya — bu til tizimidagi moslashuv va o'zgarish jarayoni. U tildagi ma'nolarni yanada aniqroq, ifodaliroq va osonroq shaklda yetkazishga yordam beradi.

Leksik, morfologik, sintaktik va punktuatsion transformatsiyalar birgalikda nutq madaniyatini shakllantiradi va tildan to'g'ri foydalanishni o'rgatadi.

Tarjima nazariyasi tarjimon uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. U tarjima jarayonini faqat amaliy ish emas, balki ilmiy va madaniy faoliyat sifatida tushunishga yordam beradi.

Tarjima tahlili esa tarjima sifatini oshiradi, tarjimonning til va madaniyatlararo tafakkurini kengaytiradi. Shunday qilib, nazariya va tahlil uyg'unligi tarjimonni haqiqiy mutaxassis darajasiga olib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Солижонов, Ж. (2024). Crafting the lexicon of magic: analyzing JK Rowling's neologisms in translation. Зарубежная лингвистика и лингводидактика, 2(4/S), 34-38.
2. Kamoljonovich, S. J. R. (2024). AMALIY TARJIMA ELEMENTLARINING ZAMONAVIY KLASSIFIKATSIYASI.
3. Kamoljonovich, S. J. (2022). JK ROULINGNING FANTASTIK ASARLARIDAGI ANTROPONIMLARNING LINGVO-PERSPEKTIV MUAMMOLARI. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(1), 334-343.
4. Kamoljonovich, S. J., & O'G, Y. N. U. B. (2022). BADIY TARJIMA UCHUN TARJIMA USULLARI TAHLILI (IAN TUHOVSKIY ASARLARI MISOLIDA). Ta'lim fidoyilari, 18(5), 32-37.